

**JIZZAX VILOYATI BAXMAL TUMANIDA TASHABBUSLI  
BYUDJETLASHTIRISH JARAYONLARI BO'YICHA 2021-2023-YILLAR  
MA'LUMOTLARI TAHLILI**

*Shukurjon Abdurashidov, Abbosbek Aziz Toji, Izzatbek Sultonov*  
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,*  
*MMT-87 guruh talabalari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Jizzax viloyati Baxmal tumanida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari, uni amalga oshirish mexanizmi va moliyalashtirish amaliyoti yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Tashabbusli byudjetlashtirish, erkin qoldiq mablag'lar, ovoz berish, taklif berish, "Ochiq byudjet", identifikasiya, elektron tizim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdag'i "Byudjet ma'lomotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-sonli hamda 2021-yil 13-apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli Qarorlariga asosan 2021-2023-yillarda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar ya'ni tashabbusli byudjetlashtirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Biz quyida bu jarayonni Jizzax viloyati Baxmal tumani misolida ko'rib chiqdik.

2021-2023-yillar mobaynida Jizzax viloyati Baxmal tumanida tashabbusli byudjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdorining tahlili bilan tanishib chiqdik. Tahlil natijasida esa quyidagi 1-jadvalda berilgan ma'lumotlarga ega bo'ldik.

**Jizzax viloyati Baxmal tumanida tashabbusli byudjetlashtirish uchun  
yo'naltirilgan mablag'lar miqdori.<sup>1</sup>**

**1-jadval.**

(ming so'mda)

T/r	Ko'rsatkich nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Yil boshiga qoldiq	0	348000,0	314271,7
2.	Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar	1500000,0	9331020,0	39153893,0

<sup>1</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

3.	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan	1402000,0	9365000,0	26040000,0
3.1.	Bajarilgan ishlar uchun hisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag‘	1374104,1	8282862,0	22986687,0
3.2.	Hisobvaraqlardagi qoldiq	0	0	470527,0
4.	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da qoldiq mablag‘	125890,9	7135,7	65340899,0

Ushbu jadval 2023-yil yakunlari bo'yicha Jizzax viloyati Baxmal tumanida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga o'tkazilgan mablag'lar miqdori 39153893,0 ming so'mni tashkil etganligini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich 2021-yilning 4-choragi bilan solishtirilganda 37653893,0 ming so'mga yoki 26 baravarga (tashabbusli byudjetlashtirish 2021-yilning 4-choragidan boshlanganligi sababli), 2022-yil ma'lumotlari bilan taqqoslaganda esa 29822873,0 ming so'mga oshganligini anglatadi. 2023-yilda “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag'lar miqdori 26040000,0 ming so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich ham 2021-yilning 4-choragi bilan solishtirilganda 24638000,0 ming so'mga yoki 18 baravarga, 2022-yil ma'lumotlari bilan taqqoslaganda esa 16675000,0 ming so'mga oshganligini bildiradi. Bundan ko'rinish turibdiki, yildan yilga mamlakat byudjetidan “Tashabbusli byudjetlashtirish” orqali viloyatlarning shahar va tumanlariga yo'naltirilayotgan mablag'lar o'sib bormoqda.

2-jadvalda esa biz Jizzax viloyati Baxmal tumanida tashabbusli byudjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar tahlili bilan tanishdik va quyidagicha ma'lumotlarga ega bo'ldik.

### **Jizzax viloyati Baxmal tumanida tashabbusli byudjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar.<sup>2</sup>**

**2-jadval.**

T/r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni			Sarflangan mablag', (ming so'mda)		
		2021-yil	2022-yil	2023-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Hududiy ichki yo'llar	1	4	6	499942,0	1063190,0	4720000,0

<sup>2</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

2.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash	2	10	26	551216,3	3555709,0	11827506,0
3.	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	2			322950,8		
4.	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash			2			1111100,0
5.	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		1	7			5798608,0
6.	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash						
7.	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari						
8.	Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish)						
9.	Boshqa tadbirlar		1			248790,0	
<b>Jami</b>		<b>5</b>	<b>16</b>	<b>41</b>	<b>1374109,1</b>	<b>4867689,0</b>	<b>23457214,0</b>

Yuqorida berilgan 2-jadval 2023-yilda Baxmal tumanida jami 41 ta taklif moliyalashtirilganligini ko'rsatadi. 2023-yilning 2 mavsumi uchun umumiylar sarflangan mablag'lar miqdori 23457214,0 ming so'mni tashkil etgan. 2022-yilda jami 16 ta taklif moliyalashtirilgan bo'lsa, sarflangan mablag'lar miqdori 4867689,0 ming so'm bo'lган. Bu shuni anglatadiki, bir yil mobaynida umumiylar moliyalashtirilgan takliflar soni tumanda 25 taga ko'paygan, moliyalashtirish uchun sarflangan mablag'lar esa deyarli 5 baravarga oshib, 18589525,0 ming so'mi tashkil qilgan. 2021-yil 4-choragi va 2022-2023-yilgi mavsumlarda eng ko'p g'olib bo'lган va moliyalashtirilgan takliflar - umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash bo'yicha loyihibor hisoblanadi. Birgina 2023-yilning o'zida ushbu tumanda "umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash" bo'yicha 26 ta taklif "Tashabbusli byudjetlashtirish" asosida

moliyalashtirilgan. Sarflangan mablag'lar miqdori 11827506,0 ming so'm bo'lган. Bu esa 2022-yilga nisbatan 132,6 % ga o'sganligini bildiradi.

Navbatdagi berilgan jadval orqali 2021-yil 4-choragi va 2022-2023-yillar choraklari bo'yicha Jizzax viloyati Baxmal tumanida "Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi" mablag'larini ularning shakllanish manbaalarini ko'rib o'tdik.

### Jizzax viloyati Baxmal tumanida "Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi" mablag'larining shakllanish manbaalari.<sup>3</sup>

**3-jadval.**

<b>Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbaalari</b>		<b>2021-yil (ming so'mda)</b>	<b>2022-yil (ming so'mda)</b>	<b>2023-yil (ming so'mda)</b>
Tuman mahalliy byudjeti tasdiqlangan umumiylar xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar			7098954,0	9692893,0
Tuman mahalliy byudjeti qo'shimcha manbalarning 30 foizi miqdorida ajratiladigan mablag'lar		103500,0	1853000,0	150000,0
Shu jumladan	Erkin qoldiq mablag'lar		963000,0	150000,0
	Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi		890000,0	
	Iqtisod qilingan mablag'lar			
Prezident qarorlariga asosan respublika byudjetidan ajratilgan mablag'lar			1018000,0	12100000,0
<b>Jami ajratiladigan mablag'lar</b>		<b>103500,0</b>	<b>11822954,0</b>	<b>22092893,0</b>

Ma'lumki, "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" mablag'larini shakllantirish manbaalari tuman mahalliy byudjeti tasdiqlangan umumiylar xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar va tuman mahalliy byudjeti qo'shimcha manbalarning 30 foizi miqdorida ajratiladigan mablag'lar hisoblanadi. Bunda tuman mahalliy

<sup>3</sup><https://openbudget.uz/boards/reports>

byudjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar Baxmal tumanida 2022-yilda 7098954,0 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilgaa borib bu ko'rsatkich 9692893,0 ming so'mga yetgan, tuman mahalliy byudjeti qo'shimcha manbaalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lari esa 2021-yilning 4-choragida 103500,0 ming so'm bo'lgan bo'lsa, 2022-2023-yillar davomida tegishli ko'rsatkichlar 1853000,0 ming so'm (2022-yil) va 150000,0 ming so'm (2023-yil)ni tashkil qilgan. Yana bir ko'rsatkich ya'ni O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarorlariga asosan respublika byudjetidan ajratilgan mablag'lar 2022-yilda 1018000,0 ming so'm bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda bu miqdor deyarli 12 baravarga oshib, 12100000,0 ming so'mga yetganligini ko'rish mumkin.

So'nggi jadval yordamida esa Jizzax viloyati Baxmal tumanida tashabbusli byudjetlashtirish (birinchi va ikkinchi bosqich) natijasida amalga oshirilgan loyihamalar tarkibi haqida ma'lumotlarga ega bo'ldik.

**Jizzax viloyati Baxmal tumanida tashabbusli byudjetlashtirish natijasida  
amalga oshirilgan loyihamalar tarkibi.<sup>4</sup>**

**4-jadval.**

<b>2021-yilda</b>			
<b>T/r</b>	<b>Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)</b>	<b>Jami to'plagan ovozlar soni</b>	<b>Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori, (ming so'mda)</b>
	Nushkent QFYda joylashgan 26-sonli umumiy o'rtta ta'lim maktabining Mullabuloq qishlog'iga qarashli filialini yangidan qurish.	1628	482000,0
1.	Gulbuloq QFY hududidagi eski 10-sonli DMTTning eski binosini ta'mirlash va yangi DMTT tashkil qilish.	1082	150000,0
2.	21-sonli umumta'lim maktabining isitish tizimini tubdan qayta qurish.	696	70000,0
3.	Qatortol SIU hududidagi Bo'z uchastkasida 300 hektar suvli	306	500000,0

<sup>4</sup><https://openbudget.uz/boards/reports>

	yer maydonidagi yo‘lga shag‘al va qum yotqizish.		
4.	Baxmal tumani Baxmal QFYda joylashgan 18-son DMMT binosining kirish joyi, atrofidagi va yo‘laklaridagi asfalt joylarini, shuningdek, DMTT binosini tashqi fasadini qaytadan ta’mirlash.	150	200000,0

**2022-yilda**

1.	Baxmal tumani XTBga qarashli 50-maktabning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish hamda maktabni multimedia bilan jihozlash.	4732	700000,0
2.	Baxmal tumanidagi 36-umumiyo‘rtta ta’lim maktabini jihoz bilan ta’minlash va isitish tizimini yangilash.	4165	950000,0
3.	Baxmal tumanidagi 56-maktabni ta’mirlash.	3779	900000,0
4.	Baxmal tumani XTB tizimidagi 70-maktabga faollar zali, kutubxona, qo’shimcha ikki xonadan iborat bo’lgan bino qurish.	2272	500000,0
5.	Baxmal tumani 12-umumta’lim maktabiga “Faollar zali” qurish va jihozlash, maktabning eski binosida joylashgan isitish tizimini butunlay yangilash, yog’och deraza, eshiklari va sinf xonalarning pol qismini yangilash.	2077	600000,0

6.	Baxmal tumani Saroy MFY binosini ta'mirlash.	2070	235000,0
7.	Baxmal tumani 74-umumta'lim mактабига 10 dona elektron doska, 2 dona rangli printer, 1 dona proektor, 15 dona noutbuk, 5 dona planshet, musiqa asboblari, 2 dona televizor, mактаб rahbариyati va o'qituvchilar xonasiga mebel jihozlari, kutubxona uchun kitob javonlari va kompyuter to'plamlari.	2052	300000,0
8.	Baxmal tumaniga qarashli 26-umumta'lim hududini va mактаб stadionini temir armatura panjara bilan o'rash va zamonaviy darvoza o'rnatish, mактабning atrofidagi yo'laklarni hamda stadionini yoritish tizimlari bilan ta'mirlash, mактаб stadionini tomoshabinlar uchun 200 kishilik o'rindiqlar bilan jihozlash.	1797	300000,0
9.	Baxmal tumani Muzbuloq MFY uchun 21-mактаб hududidan mini futbol maydoni qurish.	1457	250000,0
10.	Baxmal tumani 45-mактаб atrofini panjara to'siqlarini yangilash.	1213	300000,0

**2023-yilda**

1.	Baxmal tumani 47-umumta'lim mактabi moddiy-texnika bazasi (parta, stol, stul, yumshoq o'rindiqlar va elektron	7716	1150000,0
----	---	------	-----------

	multimedia jihozlari)ni yangilash.		
2.	Baxmal tumanidagi 66-maktabni ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini rivojlantirish.	7689	800000,0
3.	2-son kasb-hunar maktabini ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini rivojlantirish.	7666	700000,0
4.	Tuman yoshlar ishlari agentligi, mahallalardagi yoshlar yetakchilarini moddiy-texnik baza va mikroavtobus bilan ta'minlash.	7635	1200000,0
5.	Tumandagi 41-maktab atrofini panjara bilan o'rash sinf xonalarni 11 ta elektron doska va moddiy-texnik jihozlash.	7617	1200000,0
6.	Baxmal tumani 74-umumta'lif maktabi atrofini beton devor bilan o'rash, quyosh panellarini o'rnatish, "Faollar zali" qurish, maktab binosigacha bo'lgan yo'lni asfaltlash, moddiy-texnik bazasini boyitish va sun'iy qoplamlari mini stadion qurish.	7590	1200000,0
7.	56-maktab hududida sun'iy qoplamlari mini stadion qurish va sport jihozlari bilan ta'minlash.	3839	400000,0
8.	Nurafshon MFY Istiqlol qishlog'ining 2,5 km ichki yo'llariga beton qoplama yotqizish.	3344	1200000,0
9.	73-maktabning infratuzilmasini ta'mirlash, sinf xonalarni jihozlash hamda zamонавиy kompyuter jihozlari bilan ta'minlash.	3201	700000,0

10.	Tumandagi sport maktabiga sport jihozlari sotib olish, futbol maydoni tribunasiga plastmassa o'rindiqlar va monitor o'rnatish hamda ichimlik suvi uchun artizan qazish.	2731	1200000,0
-----	---	------	-----------

Yuqorida ko'rsatilgan 4-jadvalda 2021-yilning 4-choragi, 2022 va 2023-yilda g'olib deb topilgan eng yaxshi loyihalar, ularga berilgan ovozlar soni va ularga ajratilgan mablag'lar berilgan. 2021-yil yakuniga ko'ra, Jizzax viloyati Baxmal tumanida 5 ta eng yaxshi va eng ko'p ovoz to'plagan loyihalar ichida birinchi o'rinni 1628 ta ovoz bilan Nushkent QFYda joylashgan 26-sonli umumiyoq o'rta ta'lim maktabining Mullabuloq qishlog'iga qarashli filiali egallagan bo'lib, ushbu loyihani moliyalashtirish uchun 482000,0 ming so'm miqdorida mablag' ajratilgan. 2022-yilda esa g'olib bo'lgan loyihalardan esa Baxmal tumani XTBga qarashli 50-umumta'lim maktabi ko'rsatib o'tilgan. Maktabni "Moddiy-texnik bazasini rivojlantirish hamda maktabni multimedia bilan jihozlash" uchun to'plangan ovozlar soni 4732 tani tashkil etgan. Ajratilgan mablag' miqdori-700000,0 ming so'm. 2023-yilgi mavsumlarda esa, eng ko'p ovoz to'plagan loyihalardan biri Baxmal tumani 47-umumta'lim maktabini moddiy-texnika bazasi (parta, stol, stul, yumshoq o'rindiqlar va elektron multimedia jihozlari)ni yangilash. Ushbu loyiha 2023-yilda o'tkazilgan "Tashabbusli byudjetlashtirish" jarayonining 2-mavsumida 7716 ta ovoz to'plagan holda g'olib bo'lgan. Kiritilgan taklifga ajratilgan mablag' esa 1150000,0 ming so'm bo'lgan. Ko'rinib turibdiki, yildan yilga Jizzax viloyati Baxmal tumanida "Ochiq byudjet" saytiga kiritilayotgan takliflar soni oshib bormoqda. Bu esa davlat tomonidan o'tkazilayotgan "Tashabbusli byudjetlashtirish" jarayoniga insonlar befarq emasligini o'z taklif va g'oyalarini ko'proq berishayotganini anglatadi.

### **Xulosa va takliflar**

2021-yilda boshlangan "Tashabbusli byudjetlashtirish" jarayoni davomida juda ko'plab g'olib deb topilgan. Birgina 2023-yil birinchi mavsum doirasida o'tkazilgan tashabbusli byudjetlashtirish jarayonida 1,5 trln so'm bo'lgan 1666 ta loyiha g'olib deb topilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil birinchi mavsum doirasida o'tkazilgan tashabbusli budgetlashtirish jarayonlarida har biri 2 mingdan ortiq ovoz to'plagan, lekin g'olib deb topilmagan 1309 ta loyihani amalga oshirish uchun qo'shimcha ravishda 1,3 trln so'm mablag' ajratilgan. Ma'lumot o'rnida, shuni aytish joizki, 2022-yil 12-oktabr kungi yig'ilishda prezident Shavkat Mirziyoyev 2023-yildan viloyat byudjetlari qo'shimcha mablag'larining 30 foizi "Tashabbusli byudjet" loyihalariga berilishini ma'lum qilgandi.

“Umuman, 2023-yildan boshlab mahallalardagi infratuzilma uchun mablag‘lar faqatgina “Tashabbusli byudjet” orqali aholi ovoz bergan loyihalarga ajratiladi. Bunda “Tashabbusli byudjet” loyihalari uchun mablag‘lar 3,5 baravarga oshirilib, 8 trln so‘mga yetkaziladi”, — degandi O‘zbekiston Reaspublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev.

Jamoatchilik tomonidan bildirilgan takliflarni moliyalashtirish uchun 2023-yilda byudjetdan ajratiladigan jami 8 trln so‘m mablag‘ quyidagicha taqsimlanishi rejalashtirilgan edi:

2 trln so‘m — “Tashabbusli byudjet” jarayonlari uchun tuman va shahar byudjetlarida; 320 mlrd so‘m — “Mening yo‘lim” loyihasi doirasida tuman va shahar byudjetlarida; 4 trln so‘m — “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida shakllantirish uchun.

Aholi tomonidan kiritilayotgan va “Tashabbusli byudjetlashtirish jarayoni”da moliyalashtirilayotgan loyihalar asosan issiq suv ta’mnoti, ichimlik suvi, yo’llar va umumta’lim maktablarini turli jihozlar bilan ta’mirlash bo’lib qolmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri shuki, mahalla raislari yoki mакtab rahbarlarining o’z xodimlarini ovoz berish jarayoniga majburan jalb qilishi yoki turli xil tovarlar yoki pul evaziga insonlardan ovoz olinayotgani sabab bo’lmoqda. Bu muammolarni oldini olishda mamlakatimiz bir qator choralarни ishlab chiqmoqda. Ma’lumki, ovoz berish jarayonida 18 yoshga to’lgan O‘zbekiston Respublikasining istalgan fuqarosi istalgan joyida o’z loyihasiga ovoz beradi. Istalgan joyida ovoz berishi natijasida bir qator noaniqliklar kuzatiladi. Jumladan, o’z tumanidagi va o’z qishlog’idagi loyiha qolib, pul evaziga yoki qandaydir boshqa manfaat evaziga boshqa tuman va shahar loyihalariga ovoz berish. Ushbu muammoga yechim sifatida takilf bermoqchimizki, har bir tumanda yoki shaharda maxsus ovoz berish binolari tashkil etishni va har bir inson faqatgina o’z tumani yoki shahridagi loyihaga ovoz berishi, boshqa tuman yoki shaharga ovoz bermasligi uchun maxsus identifikatsiyaga asoslangan elektron tizim ishlab chiqish. O’ylaymizki, shunda ko’plab chetda qolgan loyihalarga ham aholi e’tibor qaratadi va o’z ovozini faqatgina o’z tumani yoki shahridagi taklifga kiritadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:“Шарқ. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O‘quv qo ‘llanma." Toshkent:“Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
4. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O‘quv qo ‘llanma, Toshkent:“IQTISOD-MOLIYA. 2007.

5. Маликов ТС. Ҳайдаров НХ “Молия: умумдавлат молияси”. Ўқув қўлланма. 2009.
6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:“Iqtisod-moliya. 2019.
7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
8. Malikov T, Haydarov N. Budget: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA. 2008.
9. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017
10. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
- 11.У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022
- 12.Ўроқов У, Иргашев И, Ғайбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
- 13.UY O'roqov, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
- 14.Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффоғлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
- 15.Ўроқов У. Ғайбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press. 2016.
- 16.Уроков У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий карашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
- 17.Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
- 18.Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
- 19.Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
- 20.Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
- 21.У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари.- Science and Education, 2023
- 22.G‘aybullayev O, O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
- 23.Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
- 24.Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.

- 25.Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления.“Молия” илмий журнали. 2022.
- 26.Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
- 27.Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
- 28.Masharipov I.B. MODERNIZATION OF THE ELECTORAL SYSTEM IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY. The Way of Science International scientific journal. 2020.

